

## 2021 o'qish yilida chet ellik talabalar uchun qishki ta'tilda chet elga chiqish va qayta kirish (karantin) bo'yicha muhim ma'lumotlar

Ushbu qo'llanma universitetimizda 2022 o'quv yilining 1 semestrda o'qishni davom ettiradigan chet ellik talabalar orasida qishki ta'tilda chet elga chiqmoqchi bo'lgan (rejalashtirayotgan) chet ellik talabalar uchun ketish va qayta kirish (karantin) bilan bog'liq muhim masalalarni xabardor qilish uchun ma'lumotnomadir. Iltimos, ketishdan oldin va Koreyaga qayta kirishda zarur tartib-qoidalar bilan tanishib chiqing, hamda COVID-19 bilan bog'liq barcha tartib va karantinlar o'z mablag'ingiz hisobidan amalga oshirilishini ma'lum qilamiz.

### Shaxs: 2022 o'quv yilining 1 semestrda universitetda o'qishni davom ettiradigan chet ellik talabalar orasida qishki ta'tilda chet elga chiqmoqchi bo'lgan (rejalashtirayotgan) chet ellik talabalar

#### [Chet elga chiqish ruxsat berilmaydigan shaxslar]

- 2022 yil 1 semestrda bakalavrga hujjat topshiradigan talabalar, hujjatlarni tekshirish va vizani o'zgartirish sababli chet elga chiqish mumkin emas.
- 2022 yilning yanvar-fevral oylarida VISA muddati tugaydigan talabalar, universitet orqali vizani uzaytirishligi sababli chet elga chiqishligi mumkin emas.

### Qishki ta'tilda chet elga chiqish haqida ma'lumot

1. Universitet ta'til paytida chet elga chiqmasdan Koreyada qolishingizni tavsiya qiladi.
2. Agar muqarrar sabablarga ko'ra mamlakatni tark etishingiz kerak bo'lsa, quyidagi ikkita narsaga ariza topshirishingiz va mamlakatni tark etish uchun ruxsat olib chet elga chiqishingiz mumkin.

#### ① Chet elga chiqish uchun universitetga ariza topshirish

- Ariza topshirish muddati : 15 noyabrdan (dushanba) 18 noyabr (payshanba) 18:00gacha <albatta belgilangan vaqtga amal qilib so'rovnomanini to'ldirish kerak>
- Ariza topshirish usuli : pastdagi ilova orqali ariza topshirish  
<https://forms.gle/truC3cmqJz3fGjsz8>
- Ehtiyot choralari : Albatta belgilangan vaqt ichida ariza topshirish va chet elga chiqish haqida ma'lumotlar o'zgartirgan talabalar darhol ofisni xabardor qilishlari kerak.

#### ② Immigratsiya idorasiga "Koreyaga qayta kirish uchun ruxsatnoma" (재입국 허가) uchun ariza topshirish

- Faqat chet elga chiqish uchun universitetga arizani oldindan topshirgan talabalar uchun amal qiladi
- Ariza topshirish usuli : On-layn hikorea sayti orqali yoki Immigratsiya idorasiga shaxsan borib ariza topshirish mumkin
- **Immigratsiya idorasidan "Koreyaga qayta kirish uchun ruxsatnoma" (재입국허가 확인서)ni olgandan so'ng, nusxasini albatta ofisga topshirish kerak**
- (Ehtiyot choralari)
  - **Koreyaga qayta kirish uchun ruxsatnomani (재입국 허가) olmasdan Koreyadan chiqib ketilsa, ID-karta (VISA) bekor qilinadi va Koreyaga qaytib kirish man etiladi**
  - Koreyaga qayta kirish uchun ruxsatnomani (재입국 허가) olgandan so'ng samolyot chiptasi o'zgaradigan bo'lsa, oldin olingan Koreyaga qayta kirish uchun ruxsatnoma bekor qilinadi. Yaxshilab tekshirish kerak

3. Koreyadan chiqib ketayotganda va qaytib kirayotganda 'PCR salbiy tasdig'i' ma'lumotnomasini topshirish shart.
4. Agar Koreyani qayta kirish uchun ruxsatnomasiz tark etsangiz yoki qayta kirmoqchi bo'lsangiz, talaba vizasi bekor qilinadi, akademik ta'til / o'qishda qayta tiklanish va stipendiya to'lovlari bilan bog'liq muammolar yuzaga kelishi mumkin.
5. Koreyaga qaytib keladigan (rejalashtirayotgan) talabalar, Koreyadan ketayotganda aeroportda o'z ID-kartangizni topshirmang.
  - ※ Koreyaga qaytib keladigan talabalar ID-kartani topshirib uchib ketadigan bo'lsa, VISA bekor qilinadi.
6. Koreyani tark etishdan oldin, o'qishda kamchiliklarga yo'l qo'ymaslik uchun o'qish rejangizni (darsda qatnashish, darslarni ro'yxatdan o'tish va hokazo) yaxshilab tayyorlang.
7. 2022 yilning 1-chi semestri uchun dars o'kazish usuli hali belgilanmagan va COVID-19 tendentsiyasini aks ettirish uchun yuzma-yuz darslarni kengaytirish rejalashtirmoqda. <Agar kerak bo'lsa, fakultet ofisidan ma'lumot olishingiz mumkin>
8. 2022 yilning 1-chi semestri uchun yotoqxonaga yozilish va kirish haqida keyin e'lon qilinadi, yotoqxonaga kirish belgilangan sanadan so'ng yotoqxonaga kirish mumkin emas.
9. Koreyadan chiqib ketgandan so'ng qayta kirishda COVID-19 bilan bog'liq barcha protseduralar (aeroportda kutib olish, PCR testi, karantin va h.k.) va harajatlarni shaxsning o'zi to'lab amalga oshirishi kerak.

### Koreyaga qayta kirish va karantin haqida ma'lumot

Karantin bilan bog'liq barcha tartib va jarayonlar vakolatli mahalliy hokimiyat organlarining karantin qoidalariga rioya qilgan holda talabaning shaxsan o'zi tomonidan amalga oshirilishi kerak.

Koreyaga kirishdan oldin	<p>Chet eldan kelayotgan barcha chet elliklarda 'PCR salbiy tasdig'i' ma'lumotnomasi (koreys yoki ingliz tilida) bo'lishi kerak</p> <p><b>(※ 'PCR salbiy tasdig'i' ma'lumotnomasi bo'lmasa, Koreyaga kirish man etiladi)</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- Faqat samolyot jo'nash vaqtidan 72 soat ichida berilgan ma'lumotnoma tan olinadi</li> <li>- PCR salbiy tasdiqlash shaklida pasport raqamingiz yoki tug'ilgan sanangiz, pasportingizdagi inglizcha ismingiz va hokazolalar yozilgan bo'lishi kerak.</li> <li>- <b>PCR salbiy tasdiqlash shaklini tekshirish / benilishi haqida batafsil ma'lumot olish uchun mamlakatga kirishdan oldin mahalliy elchixonaga (chet eldagi elchixonaga yoki konsullik) bilan bog'lanish kerak</b></li> <li>- Mamlakatga kirganingizdan so'ng, karantin joyi va aeroportdan olib ketish mashinasini bron qilishingiz kerak</li> </ul>
Koreyaga kirayotgan da	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. PCR salbiy tasdig'i ma'lumotnomasini topshirish</li> <li>2. Aeroportning ichida tekshiruv, o'z-o'zini karantin xavfsizligini himoya qilish programmasini o'rnatish</li> <li>3. Immigratsiya tekshiruvi / bagaj olinganidan so'ng chiqish</li> <li>4. Alohida transport vositasidan (taksi, chaqiruv mikroavtobusi, vasiy va boshqalar) foydalaning (kelgandan keyin jamoat transportidan foydalanish mumkin emas)</li> </ol> <p>※ Tekshiruv bosqichida kasallik alomatlari bor shaxs sifatida tasniflangan taqdirda, PCR testi aeroportda o'tkaziladi va vaziyatga qarab aeroport mehmonxonasida kutish sifatida tasniflanadi (qoshimcha xarajatlari). Virus tasdiqlansa, kasalxonaga yoki jamoat davolash markaziga o'tkaziladi</p>
Koreyaga kirgandan so'ng (karantin)	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Koreyaga kirilgan kuni PCT test qilish</li> <li>2. 10 kun davomida karantin &lt;Koreyaga kirilgan kundan boshlab 10 kun davomida karantin&gt;</li> <li>3. Bir kunda bir marta salomatlik holatini kuzatish</li> <li>4. Karantin tugashidan bir kun oldin qo'shimcha PCR testi &lt;Karantinning 9-chi kunida qo'shimcha PCR testi&gt;</li> </ol> <p>※ Agar Koreyaga emlashni tugatgandan so'ng Koreyaga kirsangiz va talabalar javob bersangiz, karantindan ozod bo'lishingiz mumkin - batafsil ma'lumot uchun alohida ma'lumotnomani ko'ring</p>

Eslatma	<ul style="list-style-type: none"> <li>✓ Chet eldan kelganlar karantin paytida ko'chaga chiqish yoki jamoat transportidan foydalanishlari qat'iyan man etiladi va sog'liqni saqlash markaziga (PCR testi uchun) va karantin joyiga qaytish uchun belgilangan transport vositalaridan foydalanishi kerak</li> <li>✓ Koreya kirgan kuni aeroportdan chiqish uchun vasil yoki kutib oluvchi kompaniya vakili (haydovchi) aeroportda kutib olishi kerak</li> <li>✓ Koreyaga kirgandan so'ng, mahalliy sog'liqni saqlash markaziga borish va ikki marta (Koreyaga kirish kuni, karantin tugashidan 1 kun oldin) PCR testini o'tkazish majburiydir <ul style="list-style-type: none"> <li>- 1-chi bosqich : Koreyaga kirish kuni darhol belgilangan transport vositasida PCR testini o'tkazish uchun mahalliy sog'liqni saqlash markaziga borishlari kerak.</li> <li>- 2-chi bosqich : Karantin tugashidan bir kun oldin bir xil tarzda mahalliy sog'liqni saqlash markazida qo'shimcha test o'tkaziladi <ul style="list-style-type: none"> <li>▶ Albatta belgilangan transport vositalaridan foydalanishingiz kerak (o'z avtomobilingiz, karantin taksi, mikroavtobus)</li> </ul> </li> </ul> </li> <li>✓ Karantin mustaqil joyda yolg'iz yashashingiz mumkin bo'lgan joy (bir xonali uy va hokazo) bo'lishi kerak</li> <li>✓ Mehmonxonalar, motellar, Guest House va ikki kishidan ortiq odamlar tomonidan birgalikda ishlatiladigan joylarda karantin qilish mumkin emas</li> <li>✓ Agar karantin paytida ruxsatsiz tashqariga chiqsangiz yoki karantin ostidagi hududni tark etsangiz, tegishli qonunlarga muvofiq majburiy deportatsiya kabi choralar ko'riladi</li> </ul>
---------	---

- Tavsiya etiladigan Koreyaga kirish sanasi: Karantin davri va yotoqxonaga kirish sanasini hisobga olgan holda o'qish boshlanishidan kamida 14 kun oldin Koreyaga kirish tavsiya etiladi.
- 2022 o'quv yilining 1-chi semestri va bahor choragi boshlanish sanasi : 2022 yil 28 fevral (dushanba)

**Koreyaga kirish tartib-qoidalar va karantin usullari Koreya hukumati siyosatiga muvofiq o'zgartirilishi mumkinligini oldindan ma'lum qilamiz.**